Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNINI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	



STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

G.Ya. Muxibova

TAQU, "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrası dotsenti

O.U. Sharifxodjayeva

TAQU, "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrası assistenti

O. To'rabekova

TAQU, "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrası magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining samaradorligini oshirishda strategik rejalashtirishning ahamiyati hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash metodlari tahlil qilinadi. Kichik korxonalar rentabelligi, aktivlar va kapital rentabelligi, shuningdek, sotuv samaradorligi kabi moliyaviy ko'rsatkichlar asosida korxona faoliyatining barqarorligi aniqlanadi. Maqolada, shuningdek, kichik biznes subyektlarining moliyaviy tahlil tizimini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va strategik boshqaruvni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar kichik biznesni barqaror rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, samaradorlik, rentabellik, strategik rejalashtirish, moliyaviy tahlil, kapital.

Abstract. This article examines the importance of strategic planning in improving the efficiency of small business and entrepreneurship activities and analyzes methods for evaluating economic performance indicators. Based on profitability ratios, sales efficiency, and asset returns, the paper determines the stability of small business operations. The study also provides scientific and practical recommendations for improving financial analysis systems, promoting innovation, and developing strategic management. The findings are practically significant for ensuring sustainable development of small enterprises and enhancing their competitiveness in the market.

Key words: small business, efficiency, profitability, strategic planning, financial analysis, capital.

Аннотация. В статье рассматривается значение стратегического планирования в повышении эффективности деятельности субъектов малого бизнеса и предпринимательства, а также анализируются методы оценки экономических показателей. На основе коэффициентов рентабельности, эффективности продаж и доходности активов определяется устойчивость функционирования малых предприятий. В работе предложены научно-практические рекомендации по совершенствованию системы финансового анализа, стимулированию инновационной активности и развитию стратегического управления. Полученные результаты имеют практическое значение для обеспечения устойчивого развития малого бизнеса и повышения его конкурентоспособности.

Ключевые слова: малый бизнес, эффективность, рентабельность, стратегическое планирование, финансовый анализ, капитал.

KIRISH

Hozirgi kunda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining o'rni beqiyosdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning samarali faoliyat yuritishi mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim omili, bandlikni ta'minlash hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashning asosiy garovi hisoblanadi. Shu bois kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini strategik rejalashtirish hamda ularning samaradorligini oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning



taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son'li Farmoni hamda 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–6079-son'li Farmoni da o'z ifodasini topgan. Ushbu hujjatlar mamlakatda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va raqamli iqtisodiyot asosida boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan vazifalarni ilgari surgan.

Jahonda ro'y berayotgan iqtisodiy tebranishlar sharoitida kichik biznes ko'plab, xususan rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotining asosiy tayanchi sifatida qaralmoqda. Kichik va o'rta biznes dunyo hamjamiyatidagi korxonalar sonining katta qismini tashkil etib, yangi ish o'rinlari yaratish hamda global taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shmoqda. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo miqyosidagi jami korxonalarning qariyb 90 foizi va bandlarning 50 foizi kichik va o'rta biznes hissasiga to'g'ri keladi. Agar norasmiy faoliyat yuritayotgan subyektlar ham inobatga olinsa, ushbu ko'rsatkich yanada yuqoriroq bo'ladi. Jahon banki prognozlariga ko'ra, 2030-yilga borib global mehnat bozorida 600 million yangi ish o'rni zarurati vujudga keladi. Bu esa o'z navbatida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni barcha mamlakatlar uchun ustuvor vazifaga aylantirmoqda.

Samaradorlik har qanday iqtisodiy faoliyatning asosiy mezonini hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda va metodik tavsiyalarda samaradorlikni baholashning turli usullari keltirilgan bo'lsa-da, amaliyotda bu yondashuvlar har doim kutilgan natijani bermaydi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari uchun samaradorlikni aniqlashda yangi ko'rsatkichlar — qo'shilgan qiymat, innovatsion faoliyat, resurslardan foydalanish darajasi va klasterlash kabi omillarni hisobga olish zarurati ortib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar foyda olayotgan bo'lishi mumkin, ammo bu ularning doimo samarali faoliyat yuritayotganini anglatmaydi. Samaradorlikka ichki boshqaruv omillari, tashqi iqtisodiy muhit, raqobatbardoshlik darajasi va resurslardan foydalanish sifati bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois kichik biznes subyektlari faoliyatida strategik rejalashtirish tizimini joriy etish ularning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorligini oshirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Samaradorlikni baholashda to'g'ri tanlangan ko'rsatkichlar tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik korxonalar uchun bu jarayon me'yoriy va amaliy jihatdan murakkab kechadi, chunki mavjud metodikalar asosan yirik ishlab chiqarish subyektlariga mo'ljallangan. Shu sababli kichik biznes subyektlarining o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va rivojlanish bosqichlarini inobatga olgan holda samaradorlikni baholash uslubiyatini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan, strategik rejalashtirish mexanizmlari asosida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini chuqur o'rganish, mavjud yondashuvlarni tahlil qilish hamda yangi baholash indikatorlarini ishlab chiqish ushbu tadqiqotning zarurati va dolzarbligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash masalalari bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarda turli mualliflar tomonidan ko'plab yondashuvlar ilgari surilgan. Jumladan, A. F. Ionov va N. N. Semenovalar samaradorlik dinamikasini tavsiflash uchun ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqqan bo'lib, ular korxona faoliyatida resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashda material sig'imi, mehnat sig'imi va amortizatsiya sig'imi kabi ko'rsatkichlarni asosiy o'lchov sifatida taklif etgan. Ularning fikricha, ushbu ko'rsatkichlar korxona faoliyatining iqtisodiy samarasini to'liq ifodalaydi va foyda hamda rentabellik darajasini aniqlash uchun zarur nisbatlarni shakllantiradi. Xususan, material sig'imi — mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi xomashyo sarfi, mehnat sig'imi — ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbatan sarflangan ish vaqti, amortizatsiya sig'imi esa — asosiy vositalar qiymatini ularning ishlab chiqarishdagi aylanishiga nisbatan o'lchaydi.

I. A. Yasovskaya o'z tadqiqotlarida kichik korxona samaradorligini aniqlashda rentabellik ko'rsatkichlari tizimidan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Uning yondashuvida korxonaning iqtisodiy rentabellik koeffitsiyenti sof foydaning umumiy aktivlar qiymatiga nisbati bilan, moliyaviy rentabellik koeffitsiyenti esa sof foydaning o'z kapitaliga nisbati bilan ifodalanadi. Shuningdek, muallif soliq to'langanidan keyingi foyda va tushum o'rtaidagi nisbatni ham kichik biznes faoliyati samaradorligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida keltiradi. Yasovskayaning fikricha, ushbu ko'rsatkichlar tizimi korxonaning moliyaviy barqarorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi va foydalilik darajasini kompleks baholash imkonini beradi.

S. G. Meshcheryakov esa kichik biznes faoliyatining samaradorligini yanada kengroq iqtisodiy kontseptsiya doirasida ko'rib chiqadi. U iqtisodiy samarani "avanslashgan harakatlar" (resurslar) bilan "joriy natijalar" (foyda yoki mahsulot hajmi) o'rtaidagi nisbat sifatida talqin etadi. Muallif mehnat va material xarajatlarini umumiy xarajatlar tarkibida tahlil qilib, ulardan olingan iqtisodiy samarani o'lchashni taklif etadi. Bu yondashuv korxona ichki resurslarining rentabelligini aniqlashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



Shuningdek, E. Xelferinning fikricha, kichik biznes faoliyati samaradorligini baholashda moliyaviy natijalar asosiy mezon hisoblanadi. U korxonaning iqtisodiy holatini baholashda sof foyda, likvidlik, to'lov qobiliyati, rentabellik va aylanma kapital rentabelligi kabi moliyaviy ko'rsatkichlarni birgalikda tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Xelferinning yondashuvida baholash obyektlari sifatida faqat korxonaning o'zi emas, balki menejer, mulkdor va kreditorlarning manfaatlari ham inobatga olinadi. Bu yondashuv kichik biznes samaradorligini kompleks tarzda aniqlashga, ya'ni iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv jihatlarining o'zaro bog'liqligini ochib berishga xizmat qiladi.

Mazkur olimlarning ilmiy yondashuvlari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini baholashda yagona yondashuv mavjud emas. Har bir muallif o'z metodikasida iqtisodiy natijani o'lchash uchun turli nisbatlar, ko'rsatkichlar va omillarni inobatga olgan. Shu bois mavjud nazariy qarashlarni tahlil qilish, ularning afzallik va kamchiliklarini aniqlash hamda amaliy jihatdan qulay bo'lgan kompleks uslubiyatni ishlab chiqish bugungi kunda ilmiy-amaliy dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada kichik biznes va sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish uchun bir qator ilmiy metodlar va tadqiqot yondashuvlari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, solishtirish, analitik tahlil, shuningdek statistik va kontent tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash jarayoni, avvalo, baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri tanlashga bog'liqdir. Baholashda turli ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi, ularning har biri o'zining iqtisodiy mazmuni, tuzilishi va hisoblash uslubi bilan farqlanadi. Ayniqsa, rentabellik ko'rsatkichi kichik biznes samaradorligini aniqlashda eng muhim mezonlardan biri bo'lib, u korxonaning moliyaviy natijalarini, foyda darajasini hamda resurslardan foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Korxona mulkdori nuqtayi nazaridan samaradorlikni baholashda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligi asosiy mezon hisoblanadi. Kreditorlar uchun esa baholashda asosiy e'tibor korxonaning barqaror ishlash qobiliyatiga qaratiladi. Kichik korxona faoliyati samaradorligini kompleks baholashda quyidagi to'rtta strategik yo'nalishni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir:

1. Kadrlar salohiyati. Korxona istiqboli, avvalo, uning xodimlarining bilim darajasi va malakasiga bog'liq. Yuksak malakali xodimlar mavjudligi korxonaning raqobatbardoshligini, innovatsion qarorlar qabul qilish salohiyatini va ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Shu sababli zamonaviy texnologiyalar sharoitida xodimlarning bilimini doimiy oshirib borish strategik vazifa sifatida qaraladi.

2. Ichki biznes jarayonlari. Samaradorlikni oshirishda ichki boshqaruv tizimi, kommunikativ aloqalar, personalni boshqarish va tashkiliy madaniyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki jarayonlarni takomillashtirish menejerlarga samarali qarorlar qabul qilish, resurslardan oqilona foydalanish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

3. Mijozlar bilan ishlash. Bu samaradorlikka bevosita ta'sir etuvchi omillardan biridir. Mijozlar ehtiyojlarini qondirish darajasi, mahsulot va xizmat sifati, bozor imidji kabi jihatlar kichik biznesning raqobatbardoshligini belgilaydi. Agar mahsulot sifati past bo'lsa yoki xizmat ko'rsatish darajasi yetarli bo'lmasa, mijozlar raqobatchilarga o'tib ketishi mumkin.

4. Moliyaviy ko'rsatkichlar. An'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar — daromad, foyda, rentabellik va pul oqimlari — hisobga olinadi. Bu ko'rsatkichlar kichik korxonaning moliyaviy barqarorligi va rentabellik darajasini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Kichik biznes faoliyatini baholashda, odatda, ikki yondashuv qo'llaniladi: salohiyatli (potensial) yondashuv va xarajatli yondashuv.

Salohiyatli yondashuv korxonaning kelajakdagi imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, u orqali investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari, ularning samaradorligi va resurslardan foydalanish istiqbollari baholanadi.

Xarajatli yondashuv esa korxonaning mavjud faoliyatini baholashda qo'llaniladi. U resurslardan foydalanish samaradorligini xarajatlar bilan taqqoslab o'rganadi hamda iqtisodiy natijalarning real holatini aks ettiradi. Bunday yondashuv yordamida energiya sig'imi, mehnat sig'imi, material sig'imi, fond sig'imi kabi miqdoriy ko'rsatkichlar orqali samaradorlik tendensiyalari aniqlanadi. Biroq bu yondashuv faqat miqdoriy baholashni ifodalaydi va sifat omillarini to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli iqtisodiy tahlilda iqtisodiy yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy yondashuv nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlarini ham tahlil qilish imkonini beradi. U foyda va rentabellik ko'rsatkichlari tizimini o'z ichiga oladi: sof foyda, umumiy kapital rentabelligi, o'z kapitali rentabelligi,



Masalan, yalpi foyda (YF) quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$YF = S_s / T_s$$

bu yerda:

S_s – sof sotish hajmi, T_s – sotilgan mahsulot tannarxi.

Agar ko'rsatkichning qiymati 1 dan katta bo'lsa, korxona foydali ishlayotgani, 1 dan kichik bo'lsa, zarar bilan faoliyat yuritayotganini bildiradi.

Taklif etilgan yondashuv orqali samaradorlikning integral baholash tizimi shakllantiriladi. Bu tizim kichik biznes subyektlari faoliyatini nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida, balki sifatli tahliliy ko'rsatkichlar orqali ham baholash imkonini beradi. Natijada korxonalar boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslangan tarzda qabul qilish, resurslardan oqilona foydalanish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkoniga ega bo'ladi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini baholash, eng avvalo, baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri tanlash bilan bevosita bog'liqdir. Chunki har bir ko'rsatkich o'zining iqtisodiy mohiyatiga, qo'llanilish sharoitiga va diskontlash darajasiga ko'ra farqlanadi. Shu nuqtayi nazardan, korxona faoliyati samaradorligini aniqlashda rentabellik ko'rsatkichlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Rentabellikni baholashda yalpi foyda koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$K_{yf} = S_s - T_s / S_s$$

bu yerda: K_{yf} – yalpi foyda koeffitsiyenti,

Sotilgan mahsulot rentabelligi esa quyidagi ko'rsatkichlar asosida baholanadi:

Sotish foydaliligi koeffitsiyenti;

Sotish rentabelligi koeffitsiyenti.

Sotish foydaliligi koeffitsiyenti kichik biznes korxonalari faoliyatining rentabellik darajasini ifodalaydi va u sof foydaning sof sotuv hajmiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu ko'rsatkich quyidagicha ifodalanadi:

$$R_c = F / S_c$$

Bu yerda: F – foyda (yalpi, sof yoki operatsion), S_c – sof sotuv hajmi.

Shunga muvofiq, foydalilikni aniqlashda quyidagi nisbatlar qo'llaniladi:

$$A) R_s = Y_{aF} / S_s$$

$$B) R_s = S_f / S_s$$

$$C) R_s = O_f / S_s$$

Bu ko'rsatkichlar har bir sotishdagi foydaning ulushini belgilaydi. Narxlarning o'zgarishi dinamikasi hisobga olinmasa, koeffitsiyentdagi o'zgarishlar baholashda xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois, baholashda inflyatsiya va tannarx o'zgarishlarini inobatga olish zarur.

Sotuv rentabelligi koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{sr} = S_{mt} / S_s$$

bu yerda: K_{sr} – sotuv rentabelligi koeffitsiyenti, S_{mt} – sotilgan mahsulot tannarxi, S_s – sof sotuv hajmi.

Ushbu koeffitsiyent ishlab chiqarish xarajatlarning sotuv hajmiga nisbatan qay darajada qoplanishini aniqlashga xizmat qiladi. Ko'rsatkichning ortishi tannarxning pasayishi va sotuv rentabelligining oshishini anglatadi.

Kichik biznes subyektlari uchun muhim ko'rsatkichlardan yana biri aktivlar rentabelligi bo'lib, u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$K_{ar} = S_f / A$$

bu yerda: K_{ar} – aktivlar rentabelligi koeffitsiyenti, S_f – sof foyda, A – jami aktivlar.

Amaliyotda ushbu ko'rsatkich korxona raqobatbardoshligini baholashda ishlatiladi va odatda 5–10 foiz oralig'ida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, asosiy real kapital rentabelligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{rk} = S_f / K_a$$

bu yerda: K_a – asosiy kapital.

Mazkur ko'rsatkich korxonadagi aylanuvchi va noaylanuvchi aktivlardan foydalanish samaradorligini baholaydi.

Kichik biznes subyektlarida shaxsiy kapital rentabelligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_{shk} = S_f / K_{sh}$$

bu yerda: K_{shk} – shaxsiy kapital rentabelligi, K_{sh} – shaxsiy kapital.

Bu ko'rsatkich tadbirkor tomonidan kiritilgan mablag'lardan qancha foyda olinayotganini ko'rsatadi. Shaxsiy kapitaldan samarali foydalanish korxona aktivlari o'sishiga va moliyaviy barqarorlikka olib keladi.

Shuningdek, kichik biznesda investitsiya rentabelligi koeffitsiyenti (K_{ri}) ham muhim hisoblanadi:

$$K_{ri} = (F_s + T_f) / K_{sh}$$

bu yerda: F_s – soliqqa tortiladigan fond, T_f – to'langan fondlar, K_{sh} – shaxsiy kapital.



Mazkur koeffitsiyent kiritilgan investitsiyalarning umumiy samaradorligini aniqlaydi, ya'ni har bir sarmoya birligidan olinadigan daromad miqdorini ifodalaydi. Bundan tashqari, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholashda aksiyadorlik daromadi rentabelligi, dividend to'lov koeffitsiyenti, joriy likvidlik koeffitsiyenti, aktivlar aylanishi koeffitsiyenti hamda mulkchilik koeffitsiyenti kabi qo'shimcha ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkin.

Umuman olganda, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari samaradorligini baholash kompleks yondashuvni talab etadi. Taklif etilgan metodika mavjud uslubiyatlarni to'ldiradi, hisob-kitoblarning soddaligi tufayli amaliyotda qo'llash qulay bo'lib, natijalarining realizmini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligini oshirish, avvalo, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlarini to'g'ri tanlash, tahlil qilish va strategik boshqaruv tizimiga integratsiya qilish bilan bevosita bog'liqdir. Samaradorlikni baholashda asosiy mezonlardan biri sifatida rentabellik ko'rsatkichlarining tizimli tahlili alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, kichik biznes faoliyatining real holatini to'liq aks ettirish uchun ko'rsatkichlarni diskontlash, korreksiya va matematik modellash usullaridan foydalanish zarur.

Amaliyotda kichik korxonalar samaradorligini aniqlashda sof foyda, mahsulot, sotish va aktivlar rentabelligi kabi ko'rsatkichlar o'zaro bog'liq holda ishlaydi. Shu sababli samaradorlikni baholashda yagona integrallashgan ko'rsatkichni ishlab chiqish iqtisodiy tahlilning aniqligini oshiradi. Bundan tashqari, kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda strategik rejalashtirish mexanizmlarini joriy etish muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv orqali korxonalar o'z faoliyatini uzoq muddatli maqsadlar asosida yo'naltirib, iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kichik biznes samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Kichik biznes samaradorligini baholash mezonlarini tizimlashtirish. Samaradorlikni aniqlashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda innovatsion faollik, mehnat unumdorligi, ijtimoiy samaradorlik va raqobatbardoshlik darajasini o'lchaydigan ko'rsatkichlarni ham baholash tizimiga kiritish tavsiya etiladi.

Rentabellik tizimini takomillashtirish. Kichik korxonalar faoliyatiga mos ravishda rentabellik ko'rsatkichlarining tuzatilgan (korreksiyalangan) shaklini ishlab chiqish hamda tahlilda diskontlash elementlaridan foydalanish lozim.

Strategik rejalashtirish mexanizmlarini keng joriy etish. Korxonalar strategik rejalashtirish tizimini ishlab chiqarish, marketing va moliyaviy boshqaruv jarayonlariga uzviy bog'lab, barqaror rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishlari zarur.

Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash. Kichik biznes subyektlarining risklarini kamaytirish va samaradorlikni oshirish uchun davlat tomonidan soliq yengilliklari, kredit kafolatlari hamda soddalashtirilgan hisobot tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Axborot-analitik tizim yaratish. Kichik biznes faoliyatini monitoring qilish va strategik qarorlarni ilmiy asoslash uchun yagona axborot tizimini shakllantirish zarur.

Ilmiy-amaliy hamkorlikni rivojlantirish. Oliy ta'lim muassasalari, tadqiqot markazlari va kichik biznes subyektlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali samaradorlikni baholashning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6079-sonli Farmoni.
3. Muradova N. Q. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslarini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2016.
4. Abduvaliev Z. M. Corporate social responsibility is an important factor in the sustainable development of modern companies. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(04), 42–53.
5. Abduvaliev Z., Maxsudov B. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat zamonaviy kompaniyalar barqaror rivojlanishining muhim omilidir. Jamiyat va boshqaruv, №3, 140–147-betlar. – 2021-yil 20-noyabr.
6. Abduvaliev Z. M., Maxsudov B. Y. Theoretical Foundations of the Formation of Corporate Reporting. Academic Journal of Digital Economics and Stability. ISSN 2697-2212. Online: <https://academicjournal.io>
7. Полушкин Н. А. Государственное регулирование развития сельских территорий. Дисс. канд. экон. наук. – Саранск, 2017. – 224 с.
8. Bartik A., Bertrand M., Cullen Z. B., Glaeser E. L., Luca M., Stanton C. The Impact of COVID-19 on Small Business Outcomes and Expectations. Proceedings of the National Academy of Sciences, 117(30). – July 28, 2020.



9. Karimov I. Qurilish korxonalarida investisiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2025, T.3, №4.
10. World Bank SME Finance Portal. <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti. www.stat.uz
12. Normativ-huquqiy hujjatlar ma'lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
